

## TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA QALAMTASVIRDA PORTRET ISHLASH TEXNIKASI

**Akbarova Rayhona Jamoliddin qizi**

*Andijon davlat pedagogika instituti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi  
yo'nalishi 1- bosqich talabasi*

**Annotasiya:** *Ushbu maqolada tasviriy san'at uchun ixtisoslashtirilgan davlat maktablari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarda tahsil oluvchi o'quvchilar uchun tasviriy san'at darslarida qalamtasvirda portret ishlash texnikasi to'g'risida nazariy tushunchalar berilgan. Qalam tasvir fani tasviriy san'atni o'rganayotgan har bir inson uchun eng asosiysi hisoblanadi. Ayniqsa qalam tasvir fanining barcha yo'nalishlari bo'yicha eng asosiysidir. Chunki tasviriy san'atning barcha turlari va shu soha bilan bog'liq bo'lgan boshqa sohalarni ham o'rganish uchun avvalo qalam tasvir bo'yicha ko'plab ko'nikmalar va malakalarga ega bo'lishimiz, bu fanni yahshi o'zlashtirishimiz va bilimlarimizni oshirishimiz kerak.*

**Kalit so'zlar:** *qalam tasvir, portret, tasviriy san'at, janr, qalam, proporsiya, predmet.*

## TECHNIQUE OF WORKING PORTRAIT IN PENCIL DRAWING IN FINE ARTS LESSONS

**Abstract:** *This article provides theoretical insights into the technique of portrait painting in pencil drawing in fine art classes for students studying in state schools specialized in fine arts and general secondary education schools. The science of pencil drawing is the most basic for anyone studying visual arts. Especially the pencil is the most basic in all areas of the science of drawing. Because in order to study all types of fine art and other fields related to this field, we must first have many skills and qualifications in pencil drawing, master this science well and increase our knowledge.*

**Key words:** *pencil drawing, portrait, fine art, genre, pencil, proportion, subject.*

## ТЕХНИКА РАБОЧЕГО ПОРТРЕТА КАРАНДАШНЫМ РИСУНОКОМ НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

**Аннотация:** *В данной статье представлены теоретические сведения о технике портретной живописи карандашным рисунком на уроках изобразительного искусства для учащихся государственных художественных специализированных и общеобразовательных школ. Наука рисования карандашом является самой базовой для любого, кто изучает изобразительное искусство. Тем более карандаш является самым основным во всех областях науки рисования. Потому что для изучения всех видов изобразительного искусства и других областей, связанных с этой областью,*

*мы должны сначала обладать многими навыками и квалификацией в рисовании карандашом, хорошо освоить эту науку и повысить свои знания.*

**Ключевые слова:** *рисунок карандашом, портрет, изобразительное искусство, жанр, карандаш, пропорции, сюжет.*

## KIRISH

Avvalgi zamonlardan boshlab mashxur sanatkorlar odam chizish (portret) ga katta qiziqishlar bilan intilib kelishgan. O'rta asrlarda va uyg'onish davrida matematika fani mavhumlikdan holi bo'lgan. Biz sanat tarixi bilan tanishar ekanmiz ehromlar yoki antik haykallar, Rafael, Leonardo Da Vinchi, Engr, suratlarini kuzatar ekanmiz ulardagi go'zallik bizni hayratga solishi turgan gap. Ular ko'pincha butun va bo'laklarning proporsionalligi degan estetik sifat bilan belgilanadi. Predmetlar o'rtasidagi va alohida predmet shaklining qismlari o'rtasidagi o'zaro nisbatni belgilar ekanmiz ularning proporsianallihini aniqlaymiz. Bizning atrofimizni o'rab olgan barcha narsalarning balandligi, kengligi, hajmi, kattaligi, bo'yicha taqqoslasak biri qisqa yoki baland bo'lishi, boshqalari esa uzun, keng yoki tor shunga o'hshash va hakazo bo'lishi mumkin. Proporsiya so'zi lotinchadan olingan bo'lib "o'zaro nisbat" "mutanosiblik" ma'nolarini bildiradi. Turli predmetlar. Turli predmetlar o'rtasidagi o'zaro o'lchamlar proporsiyalar deb ataladi. Proporsiya bu - badiiy asar shaklining uylunlashuvi bo'lsa, proporsianallik uning badiiy sifatidir. Shakl go'zlligini qismlarning o'zaro mutanosibliigi tashkil etadi. Proporsiyani aniqlashimiz uchun birinchi bo'lib taqqoslab ko'rishimiz kerak. Proporsiya - taqqoslash demakdir. Biz odam qiyofasini chizishda proporsiyalarni aniqlash murakkab vazifa hisoblanadi. Turli davr va turli mamlqatlar musavvirlari buni qanday hal qilganlarini ko'rish uchun tarixga murojaat qilamiz. Qadimgi Misrda odam qiyofasini tasvirlash uchun maxsus qoida ishlab chiqilgan - bu odam gavdasining tuzilishini ma'lum proporsiyalar bilan belgilashdan iborat bo'lgan. Natura shaklini shunday qismlarga bo'lib chizilganki, alohida qismlarning o'lchamlari bo'yicha butun gavdaning kattaligini aniqlashga va bir qism bo'yicha boshqasini aniqlashga yordam beradi. Uyg'unlikni qidirar ekanmiz musavvirlar ichki sezgi bilan har doim shu tamoyilga rioya qilganlar va u yoki bu darajada oliy nisbatanlarga yaqin borganlar ammo nazariy jihatdan oltin kesm tamoyili uyg'onish davrida shakllangan edi. Qadimgilarning tajribasini chuqur o'rganib tahlil qilgan. Leonardo Da Vinchi inson qiyofasi tasvirini qoidalarini ishlab chiqar ekanmiz adabiy ma'lumotlar asosida "Qadimgilarning kvadrati" degan qoidani tiklashga harakat qilgan. U odam tanasi qismlarning o'zaro nisbatidagi proporsianal qonuniyat ko'rsatilgan qalam tasvirni chizgan. Antik san'at odam boshi uchun ham oliy proporsiyalarini belgilab bergan, unga ko'ra qoq miyadan iyak ichigacha vertikal bo'ylab ko'z chuquri chizig'i bilan ikki qismga bo'linadi. Mana shu qismlarning har birini o'z navbatini ikkita qismga bo'linadi:

1- tepadagisi - soch chizig'i bilan 2- past qismi - burun uchi bilan.

Shunday qilib to'rt teng qism hosil bo'ladi. Ko'zlar o'rtasidagi masofa burun parraklari eniga teng bo'ladi. Qoshlardan burun uchigacha bo'lgan masofa quloq kattaligini belgilaydi. Aslida odamlarda bunday mukammal proporsiyalar kam uchraydi, ammo meyordan og'ishini ko'rish va jonli naturaning individual proporsiyasini yahshiroq tushunish uchun ularni bilish zarurdir. Toki bosning umumiy shakli hal etilmasa, ishloviga o'tib bo'lmaydi. Portretidagi o'xshashlik ko'p hollarda to'g'ri va izchil proporsiyalarga bog'liq. Shuni esda tutish kerakki proporsiyalarni aniqlash chog'ida qalam tasvirdagi bir qancha detallar nisbatini naturadagi ana shuncha detallarning o'zqo nisbati bilan taqqoslagan ma'qul.

### **METODALOGIYA**

Surati chizilayotgan odamning hissiy tavsiyaga o'tilar ekan, inson yuzining turli ruhiy holatlarni ifodalaydigan sxematik tasvirlarni o'rganish foydali hisoblangan. Boshni chizishga kirishilar ekan, oddiy shakl sirtlarining yig'indisi sifatida har bir detalga qarab chiqish kerak. Masalan burunni old, ikki yon, shuningdek burun sathlari joylashgan quyi sirtlardan iborat shakli bilan taqqoslash mumkin. Ko'z soqqasi sharsimon shaklga ega bo'yin slindrni eslatadi. Bundan keyingi ish shundan iboratki, ton bilan har bir detalning jonli shakli uning xususiyatlarini yanada aniqroq tuzib hajmli chiqarish, ularni o'zaro bog'lash va butunga bo'ysundirish kerak. Qalam tasvirni boshlar ekanmiz, o'tirgan qizning tasvirini qandaydir handasaviy qiyofada chizishga urunib ko'rish kerak. Gavda holati ifodaligini unutmasligimiz ham shart. Proporsional munosabatlar va yo'nalishlarga ko'z ilg'agan tasvirlarga tegishli ravishda rioya qilamiz. Muayyan shtrixning to'g'riligi o'sha qiyofaning holati yoki karakterini, uning kayfiyatini aks ettirishi, badiiy razm yaratishga imkon berish shular asosida baholanadi. Har qanday jonli mavjudning proporsiyalari rivojlanib, o'zgarib boradi. Yosh bola proporsiyalari katta yoshdagi odam proporsiyalaridan kuchli farq qiladi. Katta yoshdagi odamning boshi uning butun bo'yining 1/7 yoki 1/8 qismini, to'rt yoki besh yoshdagi bolada esa 1/4 yoki 1/5 qismini tashkil etadi. O'smirlarda boshning kattaligi gavda uzunligining oltidan bir qismiga teng bo'ladi. Tananing boshqa qismlarida ham muayyan o'zaro nisbatlar mavjud. Qiyofaning teng ikkiga bo'luvchi chiziq sonning yuqori nuqtasi orqali o'tadi, ya'ni odam oyog'i uzunligi uning bo'yining yarmisiga teng bo'ladi. Tik turganda, katta yoshdagi odamning pastga tushirilgan qo'l barmoqlarining uchi odatda, son o'rtasidan sal quyiga to'g'ri keladi. Qo'lning bilak va yelka qismi, oyoq soni bo'ldimi taxminan o'zaro teng bo'ladi.

### **MATERIALLAR VA USULLAR**

Barcha tasviriy san'at turlarining asosi bu- qalamtasvir hisoblanadi. Musavvir tasviriy san'at turining qaysi birida ijod qilishidan qat'iy nazar albatta qalam tasvirga yuzlanadi. Uzoq o'tmishda qadimgi yunon musavvirlari inson qomatini ilmiy tahlil etib, shunday hulosaga kelganlarki, inson qomati - tabiatning eng murakkab, oliy va go'zal mahsulidir. Fransuz rassomi Korbyuze shunday degan edi: Tasvirlash jarayonida buymlarning qanday rivojlanishini, o'sishini ko'raman. Bu borliqni kuzatib avvalo,

buyumlarning "ichki" dunyosini so'ngra " tashqi" dunyosini o'rganish natijasida amalga oshiriladi. Rassom qalam tasvirda ishlash uchun o'ziga kerakli maxsus ish qurollari zarur. Barcha rassomlarning amaliy mashg'ulotlar bajarishda bular zaruriy ashyolar hisoblanadi. Bular quyidagilar :

- Yumshoqligi va qattiqligi turlicha bo'lgan qog'oz;
- Turli grafik qalamlar;
- o'chirg'ich;
- Tasm tahtasi (planshet);
- Molbert;
- Qalam uchlagich.

Rassomda shu kerakli buyumlar bo'lmasa ishlayotgan asari sifatli, chiroyli, yoki ko'ngildagidek chiqmasligi mumkin. Shuning uchun rassom doimo iloji boricha kerakli bo'lgan ashyolarni barchasini yonida olib yurishi zarur. Shundagina maqsadga muvofiq bo'ladi. Bo'lajak rassom mukammal darajada portret ishlashni o'rganishi uchun bosqichma bosqich chizishi yaxshi yordam beradi. Birinchidan ular malum bir harakatlar tartibga rioya qilgan holda xatosiz o'rganadi, ikkinchidan takroriy mahsulotlar jarayonida ular keyinchalik ularga imkon beradigan algaritimni ishlab chiqadilar.

Oliy o'quv yurtlari o'quvchilarining asosiy vazifalari shuki - talabalarga mutaxassislik fanlari:

- 1- Rang tasvir
- 2- Haykaltaroshlik
- 3- Xalq amaliy san'ati
- 4- Qalam tasvir

Ayniqsa qalam tasvir borasida amaliy hamda nazariy bilim berib, umumta'lim maktablari uchun yoqori malakali o'qituvchilar tayyorlashdir.

Portret so'zi fransuzchadan olingan bo'lib - tasvir degan ma'noni bildiradi. Portret bu - tasviriy san'at janri, real hayotda mavjud bo'lgan yakka yoki bir guruh kishilar, musavvirlar tasavvurida paydo bo'lgan hayoliy qiyofalarini tasviri va inson obrazining tasviry san'atdagi eng murakkab janridir. Biz portret asosida aniq shaxsning qiyofasini abadiylashtirishimiz mumkin. Rassom portret orqali tasvirlanuvchi shaxsning ma'naviy dunyosini, ijtimoiy hayotdagi o'rnini, kasbini jamiyatdagi mavqeyini aks ettiradi va uning shu jihatlari orqali davr xususiyati siyosiy jihatlari orqali davr xususiyati, iqtisodiy ahvoli haqida ma'lumot bera oladi. Rassomning kasbiy mahorati, portret ishlash uchun tanlangan materiallari esa uning yaratgan asoslariga takrorlanmas o'ziga hoslikni baxsh etadi. Biz odam chizish uchun birinchi navbatda ( oval ), bo'yinni esa uchburchak shaklida chizib olamiz. Ikkinchi bo'lib katta uchburchakning pastgi qismida kichik uchburchak, oyoqlarini chizamiz. Uchinchi ishimiz uzunlikni belgilar asosida qo'llarini chizamiz. Endi o'rganayotgan rassom uchun portret ishlash juda qiyin tuyuladi. Deyarli ko'pchilik yangi boshlanuvchilar uning asosiy tamoyillari va usullarini

o'rganmasdan , portret yaratishga shoshilishadi. Har bir yuz chizishi umidsizlik bilan yakunlandi. Bu esa qiziqishni yo'qolishiga olib keladi. Bunday holatda esa taslim bo'lmamik kerak.Chunki har bir portret rassomi asosiy qoidalarni o'rganishdan boshlaydi, ularni mashq qiladi , ko'plab hatolarga yo'l qo'ysa ham harakatdan to'htamaslik kerak.Shundagina natijaga erisha oladi. San'atga qiziqqan deyarli har bir insonning uyida o'z portretiga ega bo'lishni hohlaydi. Shu kabi rassomlarga talab katta bo'lishi ajablanarli emas. Shuning uchun boshlang'ich va tajribali rassomning vazifasi odamning yuz xususiyatlarini chizish bo'yicha o'z mahoratini bosqichma bosqich amalga oshirishdir. Chunki yuz orqali biz nafaqat jins va yoshni balki insonning temperamenti va karakterini ham yetkazishimiz mumkin. Portret uch turga bo'linadi

- 1- bolalar
- 2- ayollar
- 3- erkaklar

Ayollar portretini oddiy qalam bilan bosqichma bosqich qanday chizish mumkin? Bir necha bosqichdan o'tkanimizdan so'ng , biz o'ziga hos bo'lgan asosiy xususiyatlarni tushunishimiz mumkin. Yuz old tomondan joylashtiriladi . Sochlar orqaga tortiladi . Ishni boshlashdan oldin buni bilish muhim. Qo'llar esa tananing shaxsiy va noyob qismidir. Ular ko'pincha shakli va o'lchami orqali inson hayoti haqida hikoya qilishlari mumkin. Ko'p yillar davomida odamlar o'zlarining chiziqlari va tuzilishini o'rganib kelayotgani chiziqlardan o'qishga harakat qilmoqdalar.

### **NATIJALAR**

Qalam bilan portret ishlash xususiyatlari va qoidalari: Ular bizga portretning aniqligini eng muhimi, realizm va yuqori sifatga erishishga yordam beradi.Lutfulla Abdullaev, Rahim Ahmedov , Abdulhay Abdullayev, Malik Nabiyeu kabi yurtdoshlarimiz portret janrida samarali ijod qilib kelishmoqdalar . Lutfulla Abdullaevning " Mulla to'ychi Toshmuhammedov", Y Ahunvoyev " realistik an'analara mohirona tasvirlangan . Abdulhay Abdullayev 1- o'zbek portretchi rassomlardan biri bo'lib , portret sohasida ijod qilgan . U o'z zamondoshlari , ziyolilarini, olimlarni adabiyot va san'at namoyandalarini portret gallereyasini yaratib katta muvofaqiyatga erishadi.Rahim Ahmedov portret janrida hayotga chuqurroq yondoshadi. Inson ichki kechinmalarini his tuyg'ularini orzularini , insonning go'zal qalbini o'z asarlarida ochib beradi.Malik Nabiyeu buyuk olimning qiyofasini yaratishdagi izlanishlari orqali 1973-yili Beruniy tavvaludining 1000yilligi munosabati bilan yaratgan portretida ulug' siymoning yahlit obrazini gavdalan tiradi . Rassom Abu Rayhon Beruniyni kamtar va sodda kishi sifatida tasvirlaydi. Kamoliddin Behzod 15- asrda M. Muzahhib tomonidan minyatura usulida 20-asrda V.Kaydalov , K. Basharov va boshqa rassomlar tomonidan grafika va rang tasvir usulida yaratilgan Alisher Navoiy siymosini O'zbekiston xalq rassomi Abdulhaq Abdullayev ham o'n yillik izlanishlari natijasida o'ziga hos tarzda muvaffaqiyatli yarata oladi.

Portret turlari

- Individual portret (lobraz tasvirlanadi)
- Juftlikda ishlangan portret ( ikki obraz tasvirlanadi)
- Gurux tasvirlangan portret (bir gurux obrazlar tasvirlanadi)
- Tantanali, rasmiy, shoxona , portret ( eng chiroyli libosda tasvirlanadi)
- Psixologik portret ( kulgu, tabassum, yig'i, qo'rquv holati tasvirlanadi)
- Avto portret ( rassom ko'zguga qarab o'zini tasvirlaydi)
- Tarixiy portret ( tarixiy shaxslar obrazlarini tasvirlaydi)

#### **XULLOSA**

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki tasviriy san'atni endigina o'rganayotgan o'quvchi( talab) yoki o'rganish istagida yurgan har bir inson eng avvalo Qalamtasvirni yahshi o'zlashtira olishi kerak . Chunki qalamtasvir tasviriy san'atning asosi hisoblanadi. Xar qanday tasvirni ishlashda yordamchi chiziqlar yordamida qoralanmalar ishlanadi. Tasvir kompozitsiyasi yetarli holatga kelgunicha qalam yordamida ishlanadi. Keyin esa hoh qalam yordamida yoki ranglar bilan tasvir tugallanadi. Xar qanday rasm ishlashni qalamtasvir asoslarisiz tasavvur etish qiyin . Shuning uchun ham tasviriy sanat darslarida o'quvchi yoshlarni qalam yordamida koproq mashq qilishga o'rgatish kerak . Ana o'shandagina san'atda bosqichma - bosqich yuksalishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Boymetov. B. Qalamtasvir o'qitishning ilmiy asoslari Metodik tasvirlar.
2. Boymetov.B Portret qalam . Pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma T., 2001-yil.
3. Boymetov. B. Qalamtasvir asoslari. Pedagogika institutlari va universitetlari uchun o'quv qo'llanma T ., 2000-yil.
4. Boymetov B. Qalamtasvir.Oliy o'quv yurtlari uchun darslik T., 2006-yil.